Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK:373.3:745.52:37.034(575.1)
ORCID: 0009-0002-0192-6465

5-SINF O'QUVCHILARINI MILLIY KASHTACHILIK ASOSIDA ESTETIK TARBIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Olimova Dilnoza Murodullo qizi
TerDPI "Pedagogika va inklyuziv ta'lim"
kafedrasi o'qituvchisi
e-mail: www.dilnozaolimova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada 5-sinf o'quvchilari estetik tarbiyasini milliy madaniyat va an'analar asosida, xususan, kashtachilik san'ati orqali rivojlantirish masalasi atroflicha tahlil etilgan. Ushbu maqolada estetik tarbiya orqali 5-sinf o'quvchilarning didi, go'zallikni his etish qobiliyati va madaniy merosga bo'lgan hurmatini shakllantirishda muhim vosita ekanligi ta'kidlangan. Kashtachilik — xalq amaliy san'atining muhim turi sifatida — ranglar uyg'unligi, naqshlar va bezaklar orqali nafaqat estetik, balki axloqiy, tarbiyaviy ta'sir kuchiga ham ega. Maqolada maktab o'quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish, milliy qadriyatlar asosida ularni tarbiyalash, ularning milliy o'zligiga hurmat ruhida kamol topishini ta'minlash bo'yicha pedagogik va metodik tavsiyalar bayon etilgan. Mavzu doirasida qiyosiy, amaliy va kuzatuv metodlari orqali kashtachilikning dars jarayonidagi o'rni, uning 5-sinf o'quvchilarining estetik tafakkuri va tasviriy ifoda ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Tadqiqot maqsadi: 5-sinf o'quvchilarida estetik didni milliy kashtachilik orqali rivojlantirish.

Tadqiqot metodi: Tahliliy, nazariy va amaliy kuzatish.

Tadqiqot natijalari: Kashtachilik orqali o'quvchilarda badiiy-estetik dunyoqarash shakllanadi.

Xulosa: Kashtachilik o'quvchilarning estetik tarbiyasida muhim vositadir.

Kalit so'zlar:badiiy did, hunarmandchilik, xalq san'ati, madaniy meros, rang uyg'unligi, naqsh, ijodkorlik, tasviriy ifoda, milliy o'zlik, qadriyatlar, sabr-toqat

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ УЧЕНИКОВ 5-Х КЛАССОВ НА ОСНОВЕ УЗБЕКСКОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ ВЫШИВКИ

Аннотация. В данной статье всесторонне освещается вопрос эстетического воспитания учащихся 5-х классов на основе национальной культуры и традиций, в частности, через искусство вышивки. Авторы рассматривают вышивку как древний и богатый вид народного прикладного искусства, подчеркивая её значение в формировании у школьников чувства прекрасного, художественного вкуса, творческого мышления и уважения к культурному наследию. В статье представлены педагогические и методические рекомендации по использованию воспитательного и нравственного потенциала вышивки в образовательном процессе. На основе сравнительного анализа, наблюдений и практической деятельности обосновано включение вышивки в учебный процесс и её влияние на развитие эстетического мышления, образного восприятия и культурного самосознания учащихся 5-х классов.

Цель исследования: Развитие эстетического восприятия через вышивку.

Методы исследования: Теоретический анализ, наблюдение, практика.

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

Результаты: Вышивка способствует формированию эстетического мышления.
Вывод: Национальная вышивка — эффективное средство эстетического воспитания.
Ключевые слова: художественный вкус, ремесло, народное искусство, культурное наследие, орнамент, цветовая гармония, творчество, визуальное выражение, национальное самосознание, ценности, терпение

IMPROVING THE AESTHETIC EDUCATION OF 5TH GRADE STUDENTS THROUGH TRADITIONAL UZBEK EMBROIDERY

Annotation. This article provides an in-depth analysis of the development of 5th-grade students' aesthetic education through national culture and traditions, particularly through the art of embroidery. The authors consider embroidery as an ancient and rich form of folk applied art, emphasizing its role in nurturing students' sense of beauty, artistic taste, creative thinking, and respect for cultural heritage. The article offers pedagogical and methodological recommendations for utilizing the moral and educational potential of embroidery in the educational process. Based on comparative analysis, observation, and practical activities, the integration of embroidery into the curriculum is substantiated, highlighting its significance in shaping 5th-grade students' aesthetic thinking, visual expression, and cultural identity.
Purpose of the research: To develop students' aesthetic sense through embroidery.
Methods: Analytical, theoretical, and practical observations.
Results: Embroidery fosters students' artistic perception and national pride.
Conclusion: Embroidery is a powerful tool for aesthetic education.
Key words: artistic taste, craftsmanship, folk art, cultural heritage, pattern, color harmony, creativity, visual expression, national identity, values, patience

Kirish. "Kashta" atamasi fors tilidan olingan bo‘lib, “chizilgan” yoki “tortilgan” degan ma’noni anglatadi. U amaliy bezak san’atining keng tarqalgan va qadimiy turi hisoblanadi. Kashta – igna yordamida hosil qilingan naqshlar, tasvirlar va gullardan iborat bo‘lib, u mato yoki charm yuzasiga tikiladi. Tikish jarayoni qo‘lda (oddiy igna, ilmoq yoki bigiz yordamida) hamda tikuv mashinasida bajariladi. Asosan bo‘z, chit, baxmal, shoyi, movut kabi matolar, shuningdek charm buyumlar (etik, kamar, pichoq qini, ot jabduklari va h.k.) kashtalashda ishlatiladi.

Kashtachilikda ishlatiladigan naqshlar ko‘pincha o‘simliksimon elementlar, geometrik shakllar, meva va hayvonlarning uslubiy ko‘rinishlari, baytlar yoki inson obrazlaridan tashkil topadi. Ba’zan me’moriy obidalar tasviri ham kashtada mujassam etiladi. Bu san’at turi orqali dastro‘mol, belbog‘, ko‘ylak, do‘ppi, zardevor, so‘zana, palak kabi buyumlar bezatiladi.

Kashta tikuvchi hunarmand **kashtachi** yoki **kashtado‘z** deb atalgan. Kashtachilik qadimdan xalq orasida keng tarqalgan hunar bo‘lib, estetik did va milliy o‘zlikni aks ettirishda muhim vosita sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa XVIII asrga kelib, kashtachilik dehqon oilalarida keng tarqalib, qizlar va ayollar orasida asosiy hunarlardan biriga aylangan.

Uy-ro‘zg‘or buyumlari va kundalik kiyim-kechaklar — sochiq, dasturxon, peshband, bayrambop liboslar, bosh kiyimlar — kashtalar bilan bezatilgan. Bunday buyumlar arzon matolardan tayyorlansa-da, kashtalari yuksak badiiy did bilan tikilgan. Tikish uslublari, naqshlarning ma’nosi va rang uyg‘unligi avloddan-avlodga o‘tgan holda boyib va takomillashib borgan. Shu bois bugungi kunda nodir va noyob kashta namunalarining ayrimlari milliy san’at durdonasi sifatida baholanmoqda.

Xalq ustalarining mohirona ijodi bilan yaratilgan kashtalar ranglar uyg‘unligi, naqshlarning mutanosibligi va nafis ishlanishi bilan ajralib turgan. Har bir buyumda qadimiy dunyoqarash, go‘zallikka intilish va madaniy merosga sadoqat mujassam bo‘lgan.

Bugungi kunda mamlakatimiz muzeylarida xalq kashtachiligiga oid boy kolleksiyalar saqlanmoqda. Ayniqsa XIX asrda tikilgan namunalar yaxshi holatda bizgacha yetib kelgan. Kashtachilik mintaqaviy xususiyatlariga ko‘ra **shaharlik** va **dehqoncha** uslubga bo‘linadi. Shahar kashtalari ayrim G‘arb san’ati bilan uyg‘unlashgan holda turli xalqlarning bezak an’analarini o‘zida aks ettirgan. Masalan, rus kashtachilik san’ati qadimiy urf-odat va marosimlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

Kashta nafaqat kiyim-kechak, balki turmushda foydalaniladigan bezak buyumlari uchun ham qo‘llanilgan. Bunda ipak, paxta, zig‘ir, jun, sun’iy tolalardan tayyorlangan iplar, shoyi va zar tasmalar, munchoq, marjon, metall pullar, qimmatbaho toshlar ham ishlatilgan. Kashtachilik san’ati har bir xalqning tarixiy an’anasi va badiiy dunyoqarashini namoyon etadi.

Albatta, har bir buyumga mos naqsh va rang tanlovi mavjud. Dastlab oq yoki sarg‘ish matolarga kashta tikilgan bo‘lsa, keyinchalik satin, shoyi, baxmal matolar kashtalashda ishlatilgan. Bu jarayon milliy estetik qarashlar taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq.

O‘zbek xalqining eng mashhur kashtali buyumlaridan biri bu — **do‘ppi**. U yengil bosh kiyim sifatida qadimda Eron va turkiy xalqlar orasida tarqalgan. Vaqt o‘tishi bilan do‘ppining turli xillari paydo bo‘lgan. Ular baxmal, satin, shoyi kabi matolarga ipak va zar iplar bilan bezatilgan. Toshkent, Chust, Buxoro, Samarqand, Boysun, Shahrisabz kabi hududlarning do‘ppilari o‘ziga xos uslub va bezaklar bilan mashhur. Misol uchun: iroqi, chust do‘ppi, gilam do‘ppi, chakma tur, qizil gul, piltado‘zi, zardo‘ppi, to‘ldirma kabi nomlar bilan mashhur do‘ppilar mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos yaratilish texnikasiga ega.

Do‘ppi va do‘ppi tikish. Do‘ppi – O‘zbekistonda do‘ppi keng tarqalgan yengil bosh kiyim sifatida mashhurdir. Uning kiyilishi dastlab Eronda va turkiy xalqlar orasida an’anaviy odat bo‘lgan.Do‘ppi musulmon xalqining bosh kiyimi hisoblanadi. U boshni tashqi muhit ta’sirlaridan himoya qiladi. U 3 qismdan iborat bo‘lib: tepa, gizak va jiyakdan tashkil topadi. Ana shu qismlarning qanday matodan qay tarzda tayyorlanishi, bezatilishi, tikilish usuli va uslublariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi.

Turli joylarda shu yerga xos usul va uslubda tayyorlanadigan do‘ppilar ko‘pincha shu yerning nomi bilan mashhurdir. O‘g‘il bolalar va erkaklar kiyadigan Toshkent, Marg‘ilon, Chust do‘ppilari sipoligi tufayli keng tarqalgan. Toshkent do‘ppilari sidirg‘a rangli (yashil, qora, qizil, ko‘k kabi) taxir baxmaldan tikiladi. Buxoro, Marg‘ilon, Chust, Urgut do‘ppilari: qora, yashil, jigarrang rangli satin yoki selon kabi matolardan tikiladi.

Do‘ppilar 2 xil usulda tikiladi.

1. Tepasi to‘rtburchak bo‘lib, tepasi uchburchaksimon taxlanadigan do‘ppi.

2. Tepasi aylana do‘ppilar.

Do‘ppi andoza bilan bichiladi. Masalan, 54-razmerli do‘ppining tepa qismi tomonlari 14 sm bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak, gizagi eni 4 sm, uzunligi 56 sm lenta tarzida kesiladi. Gizakni bosh tuzulishiga qarab enini o‘lchamini enli yoki ensizroq qilib olish mumkin. Gizak va tepa qismlar uchun astar avraga nisbatan 0,5-1sm kengroq kesiladi.

Do‘ppining tepa qismi va gizagi astarga choklar tikib chiqiladi (qaviladi). Choklar orasiga piltakach (dastali, diametri 2mm keladigan, uzunligi 15-20 smli po‘lat sim) yordamida **pilta joylanadi.**

Piltalangan gizakka jiyak tikib chiqiladi. Jiyak ensiz qora lenta, yo‘rma, zey bo‘lishi mumkin. Bular o‘riniga satindan tasma (jiyak) tiksa ham bo‘ladi. Gizakka jiyak

tikilgandan keyin tepa gizakka ulab tikiladi. Oldin do‘ppi avrasi, keyin astari ko‘klanadi.

Tikilgan do‘ppi uchburchaksimon taxlanib, astar tomondan nomlanadi va presslab qo‘yiladi, biror soatdan keyin astar tomoniga suyuq yelim surtiladi, yana presslab sekin o‘yiladi, quritiladi. Do‘ppi qismlari iroqi kashta bilan yoki zardo‘zlik gullari bilan bezatilgan do‘ppilarni qizlar kiyadi. Do‘ppini nam va changdan asrash kerak. Do‘ppini qog‘oz yoki dokaga o‘rab qo‘yish kerak.[1]

Estetik tarbiya – bu shaxsda go‘zallikni anglash, qadrlash, yaratish va undan zavqlanish qobiliyatini shakllantirish jarayonidir. An’anaviy hunarmandchilik, ayniqsa do‘ppi tikish san’ati, 5-sinf o‘quvchilarini milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda, ularning didini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Milliy o‘zlikni anglash – Do‘ppi o‘zbek xalqining boy madaniy merosining ramzidir. Uni tikish orqali o‘quvchilar o‘z tarixini, urf-odatlarini, milliy san’atini o‘rganadi.

Estetik didni shakllantirish – Naqshlarning uyg‘unligi, rang tanlovi, tikish texnikasi orqali o‘quvchilar go‘zallikni anglashni, uyg‘unlikni sezishni o‘rganadi.

Ijodkorlikni rivojlantirish – Do‘ppi bezagida o‘quvchilarning shaxsiy yondashuvi, tasavvuri aks etadi. Bu ularning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi.

Mehnat madaniyati va sabr-toqat – Do‘ppi tikish – puxta mehnat va e’tibor talab qiluvchi jarayon. Bu esa bolalarda bardoshlilik, mas’uliyat va sabr-toqatni shakllantiradi.

Jamoaviy ish ko‘nikmasi – Ustoz va o‘quvchilar birgalikda ishlaganida, hamjihatlik, o‘zaro hurmat va yordam berish kabi ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanadi.

Amaliy faoliyat orqali estetik tarbiyani takomillashtirish uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak.

1. O‘quvchilar quyidagi bosqichlar orqali do‘ppi tikishga jalb qilinadi:
2. Do‘ppining tarixi va turlari bilan tanishish;
3. Andozalarni tayyorlash;
4. Naqshlar chizish va rang tanlash;
5. Qo‘lda tikish va bezash (yig‘na, charxpalak, gulduzi, bosma naqshlar bilan ishlash);
6. Tayyor mahsulotni taqdim etish va baholash.

Bu jarayonlarda har bir o‘quvchi o‘zining didi va qiziqishiga ko‘ra ijodiy ish bajaradi, bu esa estetik tarbiya uchun katta imkoniyat yaratadi.

Kashtachilik – O‘zbekiston amaliy bezak san‘ati turlari orasida o‘zining qadimiy an‘analariga ega bo‗lgan san‘at turi hisoblanib, O‘rta Osiyoning yirik savdo hunarmandchilik markazlari va qishloqlarida keng tarqalgan. San‘atning ushbu turi o‘zining poetik rang – barangligining saqlab qolinishi bilan birga xalq orasida qadrlanib, o‘z mohiyatini yo‘qotmadi. Surxondaryo kashtalari o‘troq va ko‘chmanchilik madaniyatining qorishuvini ifodalovchi ranglar jilosi,kompozitsion tuzilmasi, bezak lavhalari tizimida o‘z ifodasini topadi. Surxondaryo kashtachiligida XX asr birinchi yarmida o‘simlik va geometrik bezaklardan keng foydalanilgan. Ilon izi chiziqlar, gullar tasviri, qo‘chqor shoxlari to‘lqin ko‘paytiruv alomatlari shular jumlasidandir. Hozirgi paytda Surxondaryolik kashta chevarlar an‘anaviy kashtachilik davomchilari hisoblanishadi. Ular o‘ziga xos an‘analarni saqlagan holda kashtachilikda lola gul,

[1] Olimova D.M. Kashtachilik bezak buyumlari turlari, xalq amaliy bezak san’ati atamalari va naqshdagi ranglarning ramziy ma’nolari. “Ijodkor o‘qituvchi” jurnali.2023-yil 5-iyun. 30-son, 86-87-bet.

egizgul, oygul, paxta gul kabi zamonaviy talqinlarni qo‘llamoqdalar. Ularga mayda nuqtalar tushirilgan yoki qush va jonivorlar shakli qo‘shib tikilgan. So‘zanalar o‘ziga xos alohida boy manzarani namoyon etgan, ularda dunyoning yaratilishi, tabiat, baxt va muhabbat haqida asrlar davomida yuzaga kelgan tasavvurlar she‘riy shaklda aks ettirilgan. O‘rtada odatda, quyosh va oyni aks ettiruvchi ulkan doiralar joylashadi. Doiralar oralig‘ida bodomgul, lolagul, atirgul kabi gulli naqshlar erkin joylashgan, butalarda qaldirg‘och va bulbullarning turli maqomdagi tasvirlari aks ettirilgan. Butun manzara she‘riy ramzni namoyon etib turadi. Xalq ustalari jannatni ana shunday tasavvur qilishadi. Manzaraga qanotli jonzotlar shakli kiritilishi bejiz emas, kashtachilar ularni farishtalar deb atashadi. So‘zana chetlaridan “obiy – suv yo‘li” o‘tadi, u go‘yo ertaklar olamini ramziy tarzda chegaralab turadi. Joynamozlarning bezagi ma‘lum darajada cheklangan – namozxon oyog‘i turadigan joy gulsiz qoladi. Chetlari esa gul bilan bezatiladi.

Qo‘lda kashta tikishning ikki turi mavjud: birinchisi matoning arqon hamda o‘rim iplarini sanab kashta tikish, ikkinchisi, matoga gul tasvirini chizib, erkin kashta tikish. Arqon o‘rim iplari kesishtirilib, polotno yoki bo‘z shaklida to‘qilgan matolarga tikiladi. Buning sababi kashta tikishda mato iplarini sanab tikishga qulaydir. Sanama kashta turi O‘zbekistonda keng tarqalgan. Erkin kashta mato tanlamaydi, tushirilgan tasvir chiziqlari asosida tikiladi. O‘zbek kashtachiligida yo‘rma, ilma, iroqi, bosma, xomduzi, chamak, chipta xayol, bahya choklar keng tarkalgan. Badiiy kashtalarda turli joydan turli choklar ishlatiladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida yosh avlodni nafaqat bilimli, balki estetik jihatdan yetuk, badiiy didi shakllangan, o‘z xalqining qadriyatlarini qadrlaydigan inson sifatida tarbiyalash dolzarb masalalardan biridir. Xalq amaliy san’ati, xususan, kashtachilik milliy madaniyatimizning boy meroslaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarda go‘zallikni anglash, badiiy tafakkurni rivojlantirish va estetik didni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. 5-sinf o‘quvchilari bu borada ayni shakllanish davrida bo‘lib, estetik tarbiyani milliy san’at orqali amalga oshirish o‘z samarasini beradi.

Estetik tarbiya — bu o‘quvchilarda go‘zallikni anglash qobiliyatini shakllantirish, san’atga hurmatni oshirish hamda badiiy tafakkur va didni rivojlantirishga qaratilgan muhim pedagogik jarayondir. 5-sinf yoshidagi o‘quvchilar o‘ziga xos tafakkur shakllanishi davrida bo‘lib, bu davrda estetik tushunchalarni milliy qadriyatlar asosida shakllantirish eng samarali yo‘ldir. Xususan, milliy kashtachilik orqali o‘quvchilarga xalq san’ati, sabr-toqat, nafosat va mehnatsevarlik kabi fazilatlar singdiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bu maqolada estetik tarbiya jarayonida kashtachilikning o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda sifatli kontent, darsliklar, xalq amaliy san’at namunalaridan foydalanildi. Kashtachilik naqshlari, rang uyg‘unligi, bezak elementlari, xalq og‘zaki ijodi o‘rganilib, maktab darslarida estetik didni shakllantirishga xizmat qiladigan metodikalar ishlab chiqildi.

Amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyati, naqsh chizish, matoga tikish, rang tanlash kabi jarayonlar baholandi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilarda o‘ziga ishonch, sabr, ijodkorlik singari ijobiy fazilatlar rivojlandi.

1. Milliy kashtachilikning estetik tarbiyada o‘rni

Milliy kashtachilik – bu nafaqat hunarmandchilik turi, balki xalqning tarixi, falsafasi va estetik qarashlarini mujassam etgan badiiy ifoda vositasidir. Kashtachilik orqali nafosat, chiroy, uyg‘unlik, sabr-toqat, mehnatsevarlik kabi fazilatlar yosh avlod ongiga singdiriladi. 5-sinf o‘quvchilari uchun milliy kashtachilik bilan tanishish ularning ijodiy qobiliyatini ochadi, tafakkurini boyitadi.

2. Kashtachilikni o'quv jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlari

Kashtachilikni darslarga integratsiyalash quyidagi fanlar orqali samarali amalga oshiriladi:

- **Texnologiya**: Amaliy mashg'ulotlarda oddiy tikish va naqsh tushirish usullari o'rgatiladi.
- **Tasviriy san'at**: Ranglar uyg'unligi, naqshlar kompozitsiyasi tushuntiriladi.
- **Ona tili va adabiyot**: Kashtachilikka oid maqollar, ertaklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalaniladi.
- **Tarix**: Kashtachilik tarixi, mashhur ustalar hayoti o'rganiladi.

Bu integratsiya orqali nafaqat estetik tarbiya, balki madaniy-ma'naviy ong ham shakllanadi.

3. Amaliy mashg'ulotlarning o'rni va metodikasi

Amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarning o'z qo'llari bilan ijod qilishlariga imkon yaratadi. Kashtachilik bo'yicha quyidagi bosqichma-bosqich yondashuv taklif etiladi:

- **Tanishuv bosqichi**: Kashtachilikning tarixiy ildizlari va namunalari bilan tanishish.
- **Tajriba bosqichi**: Oddiy naqshlarni qog'ozga va matoga chizish.
- **Ijodiy bosqich**: Mustaqil ravishda milliy naqshlar asosida kashta tikish.

Har bir bosqichda o'quvchilarning estetik didi, mashaqqatli mehnatga bo'lgan hurmati, milliy san'atga muhabbati ortadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Surxondaryo viloyati kashtachilik san'ati bilan boy tarixga ega bo'lib, asosan ayollar hunarmandchiligi sifatida rivojlangan. Tadqiqot jarayonida mintaqaga xos naqshlar va ranglar tizimi o'rganilib, ularning ma'nolari batafsil tahlil qilindi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, yangi dizayn yo'nalishlari hamda hunarmandlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hozirgi davrdagi kashtachilik rivojiga ta'siri muhokama qilindi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kashtachilik mashg'ulotlari o'quvchilarning faolligini oshiradi, estetik tushunchalarni mustahkamlaydi va milliy merosga hurmat uyg'otadi. O'quvchilar naqshlarni yaratishda o'zlarining dunyoqarashlarini ifoda etish imkoniga ega bo'ladilar. Shu tariqa, estetik tarbiya va madaniy o'zlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlik mustahkamlanadi.

XULOSA

Milliy kashtachilik orqali 5-sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash samarali pedagogik vosita hisoblanadi. U bolalarda nafaqat ijodkorlikni, balki o'zligiga hurmatni ham shakllantiradi. Kashtachilikni o'quv dasturlariga tizimli kiritish orqali yosh avlodda badiiy tafakkur, milliy g'urur va go'zallik tuyg'usini uyg'otish mumkin.5-sinf o'quvchilarini milliy kashtachilik asosida estetik tarbiyalash ularning ma'naviy va madaniy kamolotida muhim o'rin tutadi. Kashtachilikni ta'lim jarayoniga to'g'ri va samarali integratsiyalash orqali nafaqat badiiy did, balki milliy o'zlikni anglash, ijodkorlik va ijtimoiy faollik ham rivojlanadi. Shu bois, ushbu sohani chuqur o'rganish va amaliyotda keng joriy etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari Surxondaryo viloyatida kashtachilik san'atining tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda uning an'anaviy naqsh va uslublarining o'ziga xos xususiyatlarini yoritishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, kashtachilik san'atini zamonaviy moda va dizayn elementlari bilan uyg'unlashtirish hamda uni xalqaro maydonda tanitish borasida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Milliy hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash va yosh avlod orasida uni keng targ'ib etish orqali Surxondaryo viloyatining kashtachilik san'atini yanada rivojlantirish mumkinligi ta'kidlanadi.

Do'ppi tikish nafaqat qadimiy kasb-hunarlarni asrash, balki o'quvchilarda estetik did, ijodiy yondashuv, milliy qadriyatlarga hurmat va shaxsiy mas'uliyat kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim vositadir. Uni

maktabdagi tasviriy san'at yoki mehnat ta'limi darslarida samarali qo'llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" darsligi.
3. Yusupova M. "Xalq amaliy san'ati asoslari", Toshkent, 2020.
4. Karimova D. "Pedagogik texnologiyalar asoslari", Toshkent, 2019.
5. O'zbekiston xalq amaliy san'ati ensiklopediyasi, 2017.
6. Shodmonova N. "Estetik tarbiya nazariyasi va amaliyoti", 2021.
7. Rui Gonsales de Klavixo. Samarkandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar) T: 2010. B. 199.
8. Olimova D.M. Kashtachilik bezak buyumlari turlari, xalq amaliy bezak san'ati atamalari va naqshdagi ranglarning ramziy ma'nolari. "Ijodkor o'qituvchi" jurnali.2023-yil 5-iyun. 30-son, 86-87-bet.